

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA KIBERJINOYATLARNING OLDINI OLIHDA FUQAROLIK-HUQUQIY TARBIYANING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

**Dauletbaeva Jadiraxan Aliy qizi,**

*Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti  
jadiradauletbaeva84@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonda kiberjinoyatlar sonining keskin ortishi sharoitida yoshlarni kiberjinoyatlar qurboniga aylanishining oldini olishda fuqarolik-huquqiy tarbiyaning o'rni tahlil qilingan. Tadqiqotda umumta'lim maktablarida huquqiy madaniyat va huquqiy immunitetni shakllantirishning nazariy-huquqiy asoslari yoritilib, kiberxavfsizlikka oid bilimlarni rivojlantirishda SWOT-tahlil va Case Study metodlarining pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, fuqarolik-huquqiy tarbiya, raqamli fuqarolik va media savodxonlikni integratsiyalashgan holda o'qitish orqali o'quvchilarning kiberxavfsizlik kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Kiberjinoyat, kiberxavfsizlik, fuqarolik-huquqiy tarbiya, huquqiy immunitet, raqamli fuqarolik, SWOT-tahlil, Case Study.

**Аннотация.** В данной статье анализируется роль гражданско-правового воспитания в предотвращении вовлечения молодежи в число жертв киберпреступлений в условиях резкого роста масштабов киберпреступности в Узбекистане. В исследовании освещаются теоретико-правовые основы формирования правовой культуры и правового иммунитета в общеобразовательных школах, раскрываются педагогические возможности методов SWOT-анализа и Case Study в развитии знаний в области кибербезопасности. Также разработаны практические рекомендации по развитию компетенций кибербезопасности учащихся посредством интегративного обучения гражданско-правовому воспитанию, цифровому гражданству и медиаграмотности.

**Ключевые слова:** Киберпреступность, кибербезопасность, гражданско-правовое воспитание, правовой иммунитет, цифровое гражданство, SWOT-анализ, Case Study.

**Abstract.** This article analyzes the role of civil-legal education in preventing young people from becoming victims of cybercrime in the context of a sharp increase in the number of cybercrimes in Uzbekistan. The study highlights the theoretical and legal foundations of developing legal culture and legal immunity in secondary schools, and reveals the pedagogical potential of SWOT analysis and Case Study methods in enhancing cybersecurity knowledge. Furthermore, practical recommendations have been developed to foster students' cybersecurity competencies through the integrated teaching of civil-legal education, digital citizenship, and media literacy.

**Keywords:** Cybercrime, cybersecurity, civil-legal education, legal immunity, digital citizenship, SWOT analysis, Case Study.

**Kirish.** Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan axborotlashgan jamiyatda ta'lim tizimining mazmun jihatidan takomillashuvi va davr talablariga javob berishi yoshlarning har tomonlama yetuk, ma'naviyatli va huquqiy madaniyatli fuqaro bo'lib yetishishining asosiy omili hisoblanadi. O'qitish usullarining mazmun va son jihatidan ko'payishi, ta'lim turlarining takomillashuvi va turli qulayliklarning yaratilishi shubhasiz samaradorlikni oshiradi. Biroq, axborotlashgan jamiyatda son-sanoqsiz ma'lumotlarni tahlil qilish va ulardan to'g'ri foydalanish yoshlardan kibermakonda axborotlardan foydalanish madaniyati va ko'nikmasini talab qiladi.

Raqamli davrda o'qituvchi va kitob yagona ma'lumot manbai emas. Har bir insonning qo'lida dunyoning istalgan ochiq ma'lumotlar bazasidan axborot olish imkoniyati mavjud va bu imkoniyatni cheklash qonunan taqiqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasida: *"Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. Davlat Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi"* – deb belgilangan [1]. Ya'ni, biz xohlasak ham o'quvchi yoshlarning ma'lumot izlash va olish, undan foydalanish kabi qonuniy huquqini cheklay olmaymiz.

Shu sababli, globallashuv jarayonida yoshlarni yot g'oyalardan, yolg'on xabarlardan va kiberjinoyatchilikdan himoya qilish dolzarb muammo hisoblanadi. Tadqiqotning maqsadi: umumta'lim maktablarida fuqarolik-huquqiy tarbiya vositasida o'quvchilarning kiberxavfsizlikka oid huquqiy madaniyati va huquqiy immunitetini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash hamda bu jarayonda interfaol metodlardan foydalanish samaradorligini asoslashdan iborat.

Maktabo'quvchilarida huquqiy bilimlarni shakllantirish orqali ularni huquqbuzarlik subyekti bo'lishidan saqlash, jinoyatchilik qurboni bo'lib qolishining oldini olish va huquqiy madaniyatli, immunitetli, faol fuqarolar bo'lib kamol topishiga hissa qo'shish – ta'lim tizimining ustuvor vazifasidir.

Davlatimiz tomonidan yoshlarning ta'lim olishini kafolatlaydigan bir qator qonun hujjatlarida, davlat dasturlarida ta'lim tarbiya prinsplari belgilab berilgan.

Jumladan, 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'grisidagi" Qonunda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsplari sifatida talim sohasida kamsitilishlarga yo'l qo'ymasligi, ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning taminlanishi, talim va tarbiyaga milliy va umuminsoniy qadryatlaning singdirilganligi, ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati kabilar belgilab berilgan [2].

Ayniqsa, "O'zbekiston ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi"da talabalarda fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishda qator muhim yo'nalishlar belgilab beriladi:

-yoshlarning qonun hujjatlari mazmun-mohiyatidan xabardorligi, huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish, ularda sog'lom turmush tarziga rioya etish, inson huquqlari, gender tengligi, tinchlikparvarlik va millatlararo totuvlik, vijdon erkinligi, barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analarini hurmat qilish kabi umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy-axloqiy qadriyatlarni kamol toptirish, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faollik, mustahkam fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish;

- talaba-yoshlarni turli axborot xurujlari, yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishi, ular tomonidan ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishi holatlarining oldini olish, Vatanimiz istiqboli yo'lida birlashtirish maqsadida ta'lim-tarbiyaning ta'sirchan usullari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, ma'naviy-ma'rifiy

tadbirlarni tashkil etishda ularning qiziqishlarini e'tiborga olish va talab-ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlash va boshqalar [3] [4].

Shuningdek, "Raqamli O'zbekiston-2030" Strategiyasida mamlakat miqyosida sifatli va talab yuqori bo'lgan elektron davlat xizmatlarini yanada kengaytirish, bosqichma-bosqich barcha davlat xizmatlarini raqamli shaklga o'tkazish maqsadida qator vazifalar belgilangan [5]. Konstitutsiya va qonunlar yoshlarning axborot olish huquqini kafolatlaydi, biroq ayni shu huquqdan foydalanishda xavfsizlik va mas'uliyat hissi masalalari yetarlicha emas. Aynan shu bo'shliq fuqarolik-huquqiy tarbiya, aholi va yoshlar o'rtasida elektron hukumatni targ'ib qilish va foydalanishni o'rgatish bilan to'ldirilishi kerak. *Ushbu me'yoriy-huquqiy talablar fuqarolik-huquqiy tarbiyani amalga oshirishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi. Mazkur tadqiqotda ushbu vazifalarni amalga oshirishning pedagogik metodlari (SWOT-tahlil va Case Study) tahlil qilinadi.*

**Tadqiqot metodologiyasi va usullar.** O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish orqali ularda axborotlarni analiz qilish ko'nikmasini rivojlantirish ma'lum darajada huquqbuzarliklar profilaktikasi vazifasini bajaradi. "SWOT-tahlil" metodi. Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. *SWOT-tahlil – tahlil qilinayotgan obyektning ichki (kuchli va kuchsiz tomonlar) va tashqi (imkoniyatlar va tahdidlar) omillarini aniqlash orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi metod.*

Keys-stadi – bu muayyan real yoki modellashtirilgan vaziyatni o'rganish, uni tahlil qilish va yechim ishlab chiqish metodidir. Ushbu metod o'quvchilarni tayyor bilimlarni qayta hikoya qilishdan ko'ra, mustaqil tahlil qilish va qaror qabul qilishga yo'naltiradi. Metodning afzalliklari: Tanqidiy va analitik fikrlashni rivojlantiradi, o'quvchilarda mas'uliyat, tashabbuskorlik va muloqot madaniyatini shakllantiradi. Misol tariqasida 11-sinf Tarbiya darsida "Kibermakonda axborot iste'moli madaniyati" mavzusini o'quvchilarga tushuntirishda Keys-stadi metodidan foydalanish orqali ularda kiberjinoyatlarga nisbatan huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllanadi. Shuningdek, real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish orqali ularning tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish va ijtimoiy tarmoqlarda xavfsizlik qoidalariga rioya etish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Masalan, 11-sinf o'quvchisiga Telegram orqali "Bank kartangiz bloklandi" mazmunidagi havola yuboriladi. O'quvchi havolaga kirib karta ma'lumotlarini kiritadi va mablag'lari yechib olinadi. Mazkur vaziyat o'quvchilar tomonidan tahlil qilinib, sodir etilgan kiberjinoyat turi, jabrlanuvchining xatolari hamda oldini olish choralarini aniqlash topshirig'i beriladi.

**Tadqiqot natijalari.** So'nggi yillarda kiberjinoyatlar soni va fuqarolarga yetkazilgan zararlarining soni juda ko'paygan. Rasmiy statistik ma'lumotlarda bu jinoyatlar sonining keskin o'sishi va o'smir yoshlarning kiberjinoyatchilar tuzog'iga tushish holatlari ortgani

ko'rsatilmogda . Misol tariqasida quyidagi statistik ma'lumotlardan ham buni ko'rishimiz mumkin: 2021–2025-yillarda O'zbekistonda kiberjinoyatlar soni 11 baravarga (4865 tadan 62 440 tagacha) ortgan. Buning oqibatida fuqarolarga 3 trln 730 mlrd so'm zarar yetkazilgan. Shundan 1 trln 890 mlrd so'm qismi joriy yilning 11 oyi hissasiga to'g'ri keladi. [6] O'zbekistonda kiberjinoyatlarning 98 foizini bank kartalari bilan bog'liq jinoyatlar tashkil etmoqda. [7] Bu raqamlar xalqimizning, asosan aldovlarga uchib oson pul topish ilinjida aldangan o'smir yoshlarimiz ongida bir qator muammolar borligidan: huquqiy immunitetning yo'qligi, yoshlar elektron hukumat tizimidan foydalanish darajasining, moliyaviy savodxonligi va huquqiy ongining pastligidan dalolat beradi. Kiberjinoyatlarning asosiy qurbonlari va ishtirokchilari yoshlar hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida analiz va sintez, qiyosiy-huquqiy tahlil, statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Kiberjinoyatlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar tahlil qilinib, ularning yoshlar huquqiy ongiga ta'siri o'rganildi. Shuningdek, umumta'lim maktablarida fuqarolik-huquqiy tarbiya jarayoniga SWOT-tahlil va Case Study metodlarini qo'llash, fanlararo integratsiyalash imkoniyatlari tadqiq etildi [8].

Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, hech bir metodologik yondashuv ayrim holda kutilgan natijani bermaydi. Bu borada N.A.Savotinaning quyidagi fikrlarga diqqatga sazovordir: "Ta'lim-tarbiya amaliyotida mustaqil ravishda hech bir yondashuv ko'zlangan natijaga erishish imkonini bermaydi. Hatto eng mukammal deb hisoblangan pedagogik paradigma ham o'z-o'zini to'liq namoyon qilish, har tomonlama uyg'un rivojlangan fuqaro shaxsini shakllantirishga xizmat qilmaydi " [9]. Shuning uchun turli-tuman yondashuvlarni o'zaro integratsiyalash orqali fuqarolik ta'lim-tarbiyasini samarali amalga oshirish mumkin. Yaxlit pedagogik jarayon konsepsiyasiga muvofiq, huquqiy madaniyat va fuqarolik tarbiyasini rivojlantirish o'zaro uyg'un tarzda amalga oshiriladi.

Fanlararo integratsion sinfdan tashqari ta'limni joriy qilish orqali ham ushbu muammoning yechimiga hissa qo'shgan bo'lamiz. Maktabdagi Huquq ta'limi. Informatika, Tarbiya va Tarix darslari ma'lumotlarini birlashtirgan holatda integratsion dars tashkil qilish orqali o'quvchilarda kompleks bilim va ko'nikmalar hosil bo'ladi: fuqarolik huquqiy tarbiya+raqamli fuqarolik+raqamli makonda odob axloq (Huquq+Informatika+ Tarbiya), shuningdek Kiberjinoyatlar tarixi evolyutsiyasi+ Kiberjinoyatlar turlari+ javobgarlik, qonuniy baho (Tarix+ Informatika+ Huquq).

Olingan natijalar fuqarolik-huquqiy tarbiya va kiberxavfsizlik masalalarini alohida emas, balki o'zaro integratsiyalashgan holda o'qitish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, huquq, tarbiya, informatika va tarix fanlari o'rtasidagi integratsiya o'quvchilarda kibermakonda xavfsiz harakatlanish, axborotni tanqidiy baholash hamda huquqbuzarliklarning oldini olishga oid bilim va ko'nikmalarni kompleks shakllantirish imkonini beradi. Bu esa yoshlarning kiberjinoyatlar qurboni bo'lish xavfini kamaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, fuqarolik-huquqiy tarbiya mazmuniga kiberxavfsizlik, media savodxonlik va raqamli fuqarolik kompetensiyalarini integratsiyalash o'quvchilarning huquqiy ongini rivojlantirishga xizmat qiladi. SWOT-tahlil metodi orqali o'quvchilar kiberxavfsizlikka tahdid soluvchi omillarni aniqlash va baholash ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Case Study metodi esa real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish orqali ularning tanqidiy fikrlash, huquqiy baho berish va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, kiberjinoyatlar sonining ortib borishi yoshlarni kibermakondagi tahdidlardan himoya qilish bo'yicha ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Fuqarolik-huquqiy tarbiya o'quvchilarda huquqiy ong, huquqiy madaniyat va huquqiy immunitetni shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. Tadqiqot natijalari SWOT-tahlil, Case Study va fanlararo integratsiyalashgan yondashuvlardan foydalanish o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish hamda kiberxavfsizlik qoidalariga rioya etish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Shu bois umumta'lim maktablarida huquqiy ta'lim mazmuniga kiberxavfsizlik, media savodxonlik va elektron hukumat xizmatlaridan foydalanish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahriri, 2023-yil 30-aprel). — Toshkent: Adolat. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020-yil 23-sentyabr). — Toshkent: Oliy Majlis.
3. O'zbekiston ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, 2019.
4. Jumaqulov Sh.B. Aksiologik yondashuv asosida talabalarning fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. — Chirchiq, 2022.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni. "Raqamli O'zbekiston — 2030" Strategiyasi. Elektron manba: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
6. Gazeta.uz (2025, 24-dekabr). "2025-yil boshidan buyon o'zbekistonliklar kiberjinoyatlardan 1 trln 890 mlrd so'm zarar ko'rdi — IIV". O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi matbuot anjumani materiallari asosida. Elektron manba: <https://www.gazeta.uz/oz/2025/12/24/cybercrime/>
7. Gazeta.uz (2025, 5-noyabr). "O'zbekistonda kiberjinoyatlar umumiy jinoyatlarning salkam yarmini tashkil qilyapti. IIV ularning sodir etilish usullarini ochiqdadi". Elektron manba: <https://www.gazeta.uz/uz/2025/11/05/cybercrime/>
8. Radjabova D., Gapparova M.T. "Keys-stadi (Case Study) metodida amaliy baholash imkoniyatlari". — Ilmiy anjumanlar to'plami. Elektron manba: <https://zenodo.org/records/17335004>
9. Савотина Н.А. Гражданское воспитание студенческой молодежи в современном вузе: дис. ... д-ра пед. наук. — Москва, 2005. — 459 с